

TEKNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA TALABALARNI KOMPYUTERLASHTIRILGAN
TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA FAOLLASHTIRISH

Muxamedova Xolida Baxtiyorovna

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

Abduraimov Muxtorbek Akram o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU 4-kurs talabasi

Annotatsiya: *Yangi kompyuterlashgan axborot texnologiyalaridan foydalanish natijasida o'quv jarayoni individuallasadi, texnologiya fanini o'zlashtirishda talabalarda yangi motivatsiyalar paydo bo'ladi.*

Аннотация: *На уроках технологии использования новых компьютеризированных информационных технологий процесс обучения становится индивидуальным и у учеников появляются новые мотивации.*

Annotation.: *At the lessons of the technology of using new computerized information technologies, the learning process becomes individual and students have new motivations.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, texnologiya, kompyuter, axborot, kompetentlik, bilim, ko'nikma, malaka.*

Ключевые слова: *Образование, технология, компьютер, информатсия, компетенция, знания, навыки, квалификация.*

Keywords: *Education, technology, computer, information, competence, knowledge, skills, qualifications*

Hozirgi kunda texnologiyalar ishlab chiqarishda hamda o'quv jarayonida jadal rivojlanishi natijasida juda tez yangilanib bormoqda. Zamonaviy talaba, ayrim hollarda fan o'qituvchisiga qaraganda, kompyuterning imkoniyatlaridan foydalanish sohasida ancha yuqori tajribaga erishgan, malakaga ega, ilgarilab ketgan bo'lishi mumkin, shuning uchun ham o'qituvchining an'anaviy tarzda dars berishi talabani qanoatlantirmaydi. Shu boisdan ham texnologiya fanni o'qitishda, uning tarkibini, strukturasi, mazmunini yangicha motivatsiya qilish muhim masala hisoblanadi, ayniqsa amaliy mashg'ulotlar bo'yicha.

Yangi axborot texnologiyalarining muhim jihatlari shundan iboratki, u foydalanuvchiga tarmoqdagi axborotlar manbalarini tanlash, undan foydalanishning juda katta imkoniyatlarini taklif qiladi. Respublikamizda va undan tashqarida joylashgan oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot markazlarining turli-

tuman serverlarida, yetakchi axborot resurs kutubxonalari va markazlarida joylashgan axborot makonlaridan foydalanish mumkin.

Yangi kompyuterlashgan axborot texnologiyalaridan foydalanish natijasida o'quv jarayoni individuallasadi, texnologiya fanini (boshqa fanlarda ham) o'zlashtirishda talabalarda yangi motivatsiyalar paydo bo'ladi, talaba-o'qituvchi tizimida teskari bog'lanish kuchli rol o'ynaydi, bilimlarni baholashning ob'ektivligi ortadi, statistik ma'lumotlarni yig'ish engillashadi, talabalarda bilimlarni o'zlashtirishning ayrim jihatlari (yaxshi, past) yaqqol namoyon bo'ladi, o'qituvchida mashg'ulot strukturasi o'zgartirish imkoniyati (talabalarining dastlabki tayyorgarlik darajasiga mos ravishda) paydo bo'ladi, o'quv jarayonini differensiallashga imkon yaratadi, mavzuni, fanni o'zlashtirish darajasini oshiradi, unga bo'lgan qiziqishni orttiradi. O'quv jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchini texnikaviy va texnologik jihatdan qo'llab quvvatlaydi, talabalar bilan jonli muloqot qilishi uchun anchagina vaqtni tejashga erishiladi, natijada talabalar bilan bo'ladigan muloqot insoniy hamda individual tarzda, o'zaro yaqin munosabatda, ustoz-shogird ko'rinishida bo'ladi.

Pedagogning samarali faoliyat ko'rsatishiga yana bitta juda murakkab masala ta'sir qiladi, ya'ni, pedagog yangi sharoitlarda "g'oyaviy yo'l ko'rsatuvchi", "bilimlar dunyosining darg'asi", ulug' inson va beg'araz maslahatchilik rolini o'zida saqlab qolishi zarur. Hozirda pedagog quyidagi faktlarni hisobga olishi zarur: talabalar kompyuter kommunikasiyalarining imkoniyatlaridan foydalangan holda dars jarayonida berilgan vazifalarnigina emas, balki undan ham ko'p axborotlarni o'zlashtirib olishlari mumkin, hattoki, talabaning olgan ayrim axborotlari bo'yicha o'qituvchida tasavvur ham bo'lmasligi mumkin. Bu-yangi, zamonaviy pedagogikada normal, tabiiy holat bo'lib kompyuterlashtirish va o'qitishning yangi qirralarini xarakterlovchi paradigmalarning bevosita natijasidir. Bunday sharoitlarda pedagogdan fanni absolyut "har tomonlama bilish" (buning iloji yo'q!) talab qilinmaydi, balki hodisalarning bog'lanishlarini ongli ravishda tushuna bilishi, ularning ilmiy va hayotiy qiymatini baholay olishi zarur.

O'quv jarayonida kompyuterlashgan o'qitish texnologiyasidan foydalanishning xarakterli tomoni shundaki, o'qituvchi bunday mashg'ulotga ma'suliyatli tayyorlanishi, mavzuni tizimli tarzda tahlil qilib, strukturalashtirib, o'rganiladigan elementlarning mashg'ulotga mos keladigan texnikaviy va dasturiy vositalarni oldindan tuzilgan reja (ssenariy) asosida namoyish qilish va tushuntirish uchun tayyorlab qo'yishi zarur.

Shunday qilib, mashg'ulotlarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish texnologiya fanini o'qitishni, o'zlashtirishni anglab etishning yangi

qirralarini ochib beradi va o'qituvchida dars mashg'ulotlarini olib borishda yangi sifat darajalariga erishishiga ko'maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.S.Sharipov Kasb-hunar ta'lim tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi. Monografiya – Toshkent: «Fan», 2005. 130 -b.

2. Aripov M., Begimqulov U. va boshqalar. Axborot texnologiyalari o'quv qo'llanma. Toshkent. 2009 y. 368-b.

3. X.B.Мухамедова, Н.Йўлдошева. Инновационный подход эффективной организационной деятельности учащихся общеобразовательной школы // Вестник науки и образования. Научно-методический журнал. Российский импакт-фактор. 2020 г. 1 март № 5. – с. 71-73.

5. X.B.Мухамедова. Texnologiya fanining uzviylik va uzluksizligini ta'minlash va takomillashtirish omillari // ARES. BAK. Toshkent №3 2021 йил.